

Z. RAHMONQULOVA

XRONOLOGIYA

TOSHKENT — 2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z. RAHMONQULOVA

XRONOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining
5120300 – Tarix ta'lim yo'nalishi,
5220300 – Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
«VORIS-NASHRIYOT»
2013

UO.K 529(075)
KBK 63.2ya73
R33

Mas'ul muharrir:

Z.A. Saidboboyev – tarix fanlari nomzodi, dotsent;

Taqrizchilar:

G. Agzamova – tarix fanlari doktori;

S. Azizov – falakshunos

Mazkur o'quv qo'llanmada xronologiya fani va uning vazifalari, kalendarlar va eralar hamda ularning turlari, asosiy o'lchov birliklari haqidagi mavzular yoritilgan. Qo'shimcha o'qish uchun ularga oid yozma manba va ilmiy adabiyotlardan parchalar, test savollari berilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavriatlarining tarix va arxiv yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi talabalari uchun mo'ljallangan.

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI 213 41/1
Ahborot-resurs markazi

ISBN 978-9943-4212-1-9

© «VORIS-NASHIRIYOT». 2013.

KIRISH

Sanalar hisobi tarix fani uchun muhim ahamiyatga ega. Bu esa qadimgi davrlardayoq astronomlar zimmasiga kalendarni tartibga solish vazifasini yukladi. O'tmishda turlicha kalendar va xronologiya tizimlaridan foydalanilgani uchun bir kalendaridagi sanalar boshqa kalendarida qaysi sanaga mos kelishini aniqlashtirish masalasini o'rta qiyqirdi. Aynan shu zarurat tufayli **xronologiya** fani paydo bo'ldi. Xronologiya kalendarlar, vaqt tizimlari va ular o'rtasidagi mutanosib masalalarni o'rganadi. Bu fan turli tarixiy hodisalar va turli manbalarda keltirilgan sanalarni aniqlab, ularni hozirgi vaqt o'lchovi tartibiga moslashtiradi. Asosiy vaqt birliklari (sutka, oy, hafta va yil) va ularning paydo bo'lishi masalalarini tadqiq etadi. Shuningdek, kalendarlarning turlari va turli elatlar tomonidan qo'llanilgan bir-biridan farqli bo'lgan kalendarlarni batafsil o'rganadi. Xalqlarning bir-birlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari natijasida ularning vaqtni hisoblashdagi ba'zi elementlari bir-biriga qorishib ketgan. Shuning uchun ko'p millatli ba'zi davlatlarda turlicha yil hisoblash usullari mavjud. Ayrim xalqlar vaqtni Quyosh, boshqalari esa Oyga ko'ra hisoblashgan. Ikki uslub ham dastlabki kalendarlarda Sharq xalqlari tomonidan qo'llanilgan.

Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtni o'rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Xronologiya ilm sifatida Babil. Misr. Gretsiya va Rimda shakllandi. O'rta asrlarda xronologiyaning rivojlanishiga O'rta Osiyolik olimlar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Beruniyning «Al-osor al-boqiya ani-l-qurun al-holiya» («O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»). («Xronologiya»), «Qonuni Mas'udiy» asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. Umar Xayyom kalendari esa mukammallik jihatidan Grigoriy kalendaridan ham ustun turadi.

1935-yilda oliy o'quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilgandan keyin tarixning boshqa yordamchi fanlari qatorida talabalarga xronologiya fani ham o'qitila boshladi. Natijada xronologiya faniga oid o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj ortdi. 1939-yilda N.V. Ustyugov, 1944-yilda L.V. Cherepnin, 1960-yilda E.I. Kamensev, 1967-yilda A.P. Pronshteyn, 1968-yilda M.Ya. Syuzmov, 1970-yilda S.I. Seleshnikov, 1980-yilda I.P. Yermolayev, 1981-yilda A.P. Pronshteyn, V.Y. Kiyashkoning xronologiya fanidan o'quv qo'llanmalari nashr etildi. Ammo bu tadqiqotlarda O'rta Osiyoda vaqtni hisoblash tizimi va kalendarlar to'g'risida juda kam ma'lumot berilgan.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan respublikamizda tarixiy xronologiya sohasida jiddiy ishlar olib borishga, O'rta Osiyo xalqlari xronologiyasini chuqur va to'laqonli o'rganishga imkoniyat yaratildi. Jumladan, Mamadmuso Mamadazimov, Sobit Ilyosov, Sayyid Bahrom Azizovlar xronologiya faniga oid risola va ilmiy maqolalarini nashr qildilar.

Mustaqillik yillarida xronologiya fanining taraqqiyotiga hissa qo'shgan yurtdoshlarimiz Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Mahmud Qoshg'ariy, Mirzo Ulug'bekning asarlari nashr etilib, ularning ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganishga imkoniyat tug'ildi. YUNESKO qarori bilan 1998-yilda Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi keng nishonlandi.